

## BADIIY ADABIYOTDA MILLIYLIK VA UMUMINSONIYLIK.

(Nabi Jaloliddin hikoyalari misolida)

**Odiljonova Robiyaxon Muxtorjon qizi**

FarDU filologiya fakulteti o‘zbek tili yo‘nalishi 2-kurs talabasi

E-mail: [dosfar9799@gmail.com](mailto:dosfar9799@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek mentalitetidan kelib chiqilgan holda yoshlarni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar asosida zamon bilan hamnafas holda tarbiyalash g‘oyasi ilgari surilgan. Shuningdek, har bir millat o‘ziga xos milliy madaniyatga ega ekanligi, madaniyat insonlarning qaysi millatga xos ekanligini ko‘rsatishi haqida umumiy fikr yuritilgan Bundan tashqari ijodkor Abdulqosim Mamarasulov va Nabi Jaloliddinlarning badiiy mahorati yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** yozuvchi, millat, ma’naviyat, milliylik, umuminsoniy qadriyatlar, urf-odatlar, an’analar

### NATIONALITY AND HUMANITY IN FICTION.

**Abstract.** In this article, based on the Uzbek mentality, the idea of up-to-date education of young people based on national and universal values is put forward. In addition, the general opinion that each nation has its own national culture, culture shows which nation people belong to, and the artistic skills of creators Abdulkasim Mamarasulov and Nabi Jaloliddin were highlighted.

**Key words:** writer, nation, spirituality, nationality, universal values, customs, traditions

Har bir yozuvchi ma’lum davr, ma’lum kasb vakili bo‘lishidan tashqari, ma’lum millat vakili hamdir. U muayyan jug‘rofiya, sotsial iqtisodiy hamda milliy muhitda yashab ijod qiladi. Uning tasavvurlari, ko‘nikmalari, xarakterida ana shu sharoit o‘z aksini topadi. Mana shu xususiyatlar yozuvchining asarlariga ham, ijodiga ham milliy

o‘ziga xoslik bag‘ishlaydi. Mana shu faktorlar adabiyotning milliy xususiyatlarini keltirib chiqaradi. Badiiy asarlarda xalqning butun adabiyotida o‘sha xalq yashaydigan tabiiy sharoit va jug‘rofiy muhit aks etadi: o‘sha xalq yashaydigan joyning o‘simliklari, hayvonot dunyosi va boshqa ba’zi xususiyatlari o‘z aksini topadi. Masalan, paxta kabi oppoq deyish, faqat paxta o‘sadigan o‘lkalar uchungina xos bo‘lsa, Shotlandlarda yuzning oqligi paxtaga qiyoslab ta’riflangan. Bizda oy yuzli deyish maqtov sanalsa, go‘zallik belgisi hisoblansa, Yevropada ayol yuzini oyga o‘xshatish go‘zallik belgisi bo‘la olmaydi. Adabiyotning milliy xususiyati jug‘rofiy sharoit, o‘simliklar va hayvonot dunyosi, xalqning mashg‘ulotlari turmush sharoitlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu bilan birgalikda badiiy adabiyotda xalqning dard-u xasrati, orzu-armonlari, kurash va intilishlari ham o‘z ifodasini topadi. Masalan, “Erk” qissasidagi inson erki, xotin-qizlarning erki masalalari o‘zbek xalqi hayoti uchun muhimdir. Biroq bu masalalar ruslar va boshqa Yevropa xalqlari uchun unchalik muhim bo‘lmasligi mumkin. Bundan tashqari adabiyotda xalqning turmush tarzi, urf-odatlari ham aks etadi. Masalan, “O‘tkan kunlar” romanidagi Kumushning to‘yi. Qahramon taqdiri ham urf-odatlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Ana shu urf-odatlar, marosimlar xalqning hayoti, mehnati va kurashi jarayonida kechadi. Qahramon ham ana shularga bog‘liq bo‘ladi, ana shu odat va ko‘nikmalarga ma’lum darajada rioya qiladi. Personajning xarakterida ham xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, ko‘nikmalari aks etadi.[3,57] Abdulqosim Mamarasulovning “Atlas ro‘molcha” deb nomlangan hikoyasida ham millatimizga xos an’analar, urf-odatlar keng yoritilgan. Bu hikoyada Dilbar ismli qizni sevib qolgan Qodir ismli yigitning qizning uyiga ota-onasini yuborishi ya’ni o‘zbek xalqining milliy urf-odati hisoblangan sovchilik an’anasi juda chiroyli tarzda yoritib berilgan. Hikoyani nomiga ham e’tibor bersak, “Atlas ro‘molcha” nima uchun aynan atlas, boshqacharoq qilib oq ro‘molcha deyishi ham mumkin edi yozuvchi. Lekin yozuvchi aynan atlas ro‘molcha deb atadi. Chunki atlas- o‘zbek xalqining milliy libosi hisoblanadi. Masalan biror-bir inson chet davlatiga sayohatga bordi deylik, u o‘zbek xalqining milliy libosi hisoblangan atlas kiyimini kiyib shaharni aylanib yurgan bo‘lsa, uning kiygan libosiga qarab o‘zbek millatiga mansub ekanligini uni kuzatib turgan odam aytishi mumkin.

Demak bu hikoya orqali yozuvchi o‘zbek xalqining milliyligini oddiygina bir atlas ro‘molcha orqali ko‘rsatib bergan.

Nabi Jaloliddinning “Do‘ppi” deb nomlangan hikoyasida ham aynan milliy urf-odatlar va an‘analar keng yoritilganini ko‘rishimiz mumkin. Asosan bu hikoyada o‘zbek xalqining milliy libosi hisoblangan do‘ppi ulug‘langan. Hikoya qahramoni hisoblangan Rahmatjon do‘ppi kiyishni unchalik xush ko‘rmasligi, otasi uning do‘ppi kiymasdan yurishiga qarshi ekanligi va maktabda o‘qiydigan kichkina ukasi ham do‘ppini jon-u dili bilan yaxshi ko‘rib kiyishi hikoya qilinadi. Bundan tashqari bobo va nabiraning suhbatidan shuni ham bilishimiz mumkinki, tandir, o‘choq hamda ariqchada oqayotgan toza suvlar faqat o‘zbek xonadonlarida bo‘lar ekan. Bu hikoyada nafaqat do‘ppi milliy ramzimiz bo‘libgina qolmay, boshqa urf-odat va an‘analarimiz ham bobo va nabira suhbatida keltirgan ekan. Rahmatjonning harbiy xizmatdan qaytganida

- unga bosh-oyoq sarpo kiydirayotgan ayasi oxirida boshiga yangi do‘ppi ham qo‘ndirdi. Rahmatjonning ko‘zi oynadagi o‘z aksiga tushdi-yu, qo‘qqisdan ilon ko‘rgan odamday o‘zgardi. “Yo‘q do‘ppini kiymayman” dedi.

“Voy-voy, yangi kelgan soldat do‘ppi kiyadi-da bolam” dedi onasi. [2, 66]

Ko‘rib turibmizki, do‘ppi o‘zbek xalqining milliy libosi, har qanday vaziyatda ham insonni boshida do‘ppisi bo‘lishi kerakligi bu hikoyada ilgari surilgan. Lekin negadir hikoya qahramoni Rahmatjon bu do‘ppini kiyishni xohlamaydi. Onasining qanchalik undashiga, bobosining so‘zlariga hattoki dadasining so‘kishlariga ham qaramasdan umuman do‘ppi kiyishni xohlamaydi. Lekin u bobosini hurmat qilardi, shuning uchun ham bobosi uchun do‘ppi kiyishga va‘da beradi. Bobosi Rahmatjonga o‘zining yangi, chiroyli, hoshiyali do‘ppisini sovg‘a qiladi va uni kiyishini aytadi. Ammo Rahmatjon uni kiymaydi, aksincha bobosi xafa bo‘lmasligi uchun bugun emas, ertaga kiyaman degan bahona qiladi. Lekin bobosi Rahmatjonni do‘ppi kiygan holda ko‘rishni juda xohlagan edi. Ammo bu niyatiga yetmaydi. Niyatiga yetmaganligining asosiy sababi Rahmatjonning qaysarligi tufaylidir. Oxiri oqibat bobosi bu dunyoni tark etadi.

- Rahmatjonni onasi uyg‘otdi, u nimaligini so‘raganda opoqdadangdan ayrilib qoldik dedi. [2, 66]

Bu gapdan Rahmatjon qattiq seskanib tezda o‘rnidan turdida, yuz-qo‘lini yuvdi. Onasini do‘ppingni kiyib ol deganini eshitib xonasiga shoshildi va kecha opoqdadasi sovg‘a qilgan do‘ppini olib kiyib ko‘rdi. Unga bu do‘ppi juda ham yarashganini o‘shanda his qildi va tezda otasini oldiga shoshildi. Otasi o‘g‘lisini do‘ppi kiyganini ko‘rib juda quvondi. Va o‘g‘lisiga “Boshing toshdan bo‘lsin” deb aytdi. Shu payt Rahmatjonning hayoliga bir fikr keldi: “Boshqa millatlardayam darvozaxona bo‘larmikin?!”

Bundan ko‘rinadiki, Rahmatjon o‘z millati xos bo‘lgan milliy libosni kiyganda qandaydir boshqacha tuyg‘uni his qiladi. Va o‘ylab qoladi boshqa millatlarda ham do‘ppi kabi milliy kiyim yoki o‘sha millatga mansub ekanligini bildiruvchi biror narsa bormikan deb. Darhaqiqat har bir millatning o‘ziga xos yoki mos milliy an‘anasi urf-odatiga aylangan milliy libosi bo‘ladi. Yozuvchi hikoyani tugatar ekan qahramon tilidan “Boshqa davlatlarda ham darvozaxon bo‘lamikan” degan qiziqish bilan shu savolni o‘qiguvchi insonlarning o‘z ixtiyoriga qoldiradi. Hozirgi kunda ham milliy libos kiyish dolzarb mavzulardan biridir. Ba‘zi bir Rahmatjon kabi o‘ylovchi insonlar do‘ppi yoki atlas kiyishni umuman xohlashmaydi. Ular anglab yetishmaydiki, bu narsalar, milliy an‘ana bo‘lib ota-bobolarimizdan avlodlarga qolib kelmoqda. Milliy an‘anani davom ettirish biz yosh avlodning burchimizdir. Biror bir xalq yoki biror bir millatning a‘zosi hisoblangan odam o‘sha millatga xos tarzda yashamog‘i va o‘sha millatning urf-odatlarini o‘rganib albatta amalda sinamog‘i lozim. To‘g‘ri hozirgi kunda har bir joyga kiyib borish uchun maxsus kiyimlar bor, lekin bu bilan umuman milliy liboslarni kiymaslik kerak degani emasku. Qanchalik o‘zbek yigitlariga o‘zbek do‘ppilari yarashganidek, o‘zbek qizlariga ham atlas shunday yarashadi. Ko‘ryapmizki, o‘zbek yigitlarining do‘ppi kiyib yurishlari ham millatning bir an‘anasi, bobolaridan qolgan urf-odatidir. Har bir millatning o‘ziga xos milliy an‘anasi va milliy urf-odatlari mavjud. Inson zoti tug‘ilibdiki ma‘lum bir millat vakili bo‘lib hayot kechiradi. Demak, u shu millatga xos bo‘lgan an‘ana va qadriyatlarni bilishi hamda



uni qadrlashi kerak. Milliylikni asrash umuminsoniy tuyg‘ularni shakllanishida yordam beradi. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma’naviyati va madaniyati bilan chambarchas bog‘liq holda vujudga keladi.

Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek “Yuksak ma’naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga, o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir”. [1,89]

Xulosa qilib aytganda, kelajak avlodni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashimiz kerak. Yangi O‘zbekistonni milliy, umuminsoniy qadriyatlarini hisobga olgan holda, hamda zamonaviy bilimlarimizga tayanib qurishimiz mumkin. Yoshlarni milliy ruhda tarbiya olishi yoki olmasligi biz kattalarning burchimiz hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Mirziyoyev.Sh.M. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”. – Toshkent. O‘zbekiston: 2017 yil,1 tom.
2. Nabi Jaloliddin “Erkagi bor uy” - Toshkent: Sharq, 2005. 66-bet
3. Y.A. Karimova Adabiyot nazariyasi o‘quv uslubiy qo‘llanma, Jizzax-2013. 57-bet
4. Abdulqosim Mamarasulov “Atlas ro‘molcha” hikoyasi